

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MASOFAVIY TA`LIMNING O`SIB BORAYOTGAN SUR`ATLARI

Karshiboyeva Shoira Sindarkulovna

TKTI Yangiyer filiali, o`qituvchisi,

Hamzaliyeva Komila Abdunazarovna

TKTI Yangiyer filiali, 1-bosqich talabasi

e-mail: rasul.obidov@mail.ru

O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonida ta`lim tizimini, xususan, masofaviy o`qitish jarayonlarini rivojlantirish masalalariga keng e`tibor berilmoqda. Jumladan, 2019-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo`yicha ishlab chiqilgan yo`l xaritasida ta`lim va inson kapitalini rivojlantirish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirish yo`nalishlari ko`rsatilgan bo`lib, unda ta`lim tizimida qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari, smart-texnologiyalar va e-learning tizimini faol joriy etishga keng e`tibor qaratilgan.

Masofaviy ta`limni amalga oshirish uchun mamlakatimizda elektron onlayn-modullar va masofaviy o`qitish dasturlarini shakllantirish talab etiladi. Smart-texnologiyalar – bu jarayonni amalga oshirishga zamonaviy yondashuv bo`lib, dastlabki bosqichda barcha axborotni umumlashtirish, maqbul ish muddatlarini tayinlash, resurslar etarlicligini belgilash, shuningdek jarayonning barcha ishtirokchilariga aniq va tushunarli vazifalar berish imkonini yaratadi. Zamonaviy Smart-ta`limning muhim jihatlari uning moslashuvchanligini va ochiq ta`lim muhiti yaratilishini, gadjetlardan foydalanish, ochiq ta`lim resursi va boshqaruv tizimini taqozo etishidir. Xususan, Smart- ta`lim texnologiyalarini qo`llashda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo`yicha jahonda mashhur bo`lgan ZTE kompaniyasi tomonidan Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Smart Classroom loyihasi amalga oshirildi. Hozirgi paytda ZTE korporatsiyasi Xitoy, AQSh, Frantsiya, Shvetsiya va Koreyada o`zining 18 ta ilmiy-tadqiqot markazlariga ega bo`lib, ularda iqtisodiyotning turli sohalari uchun innovatsion echimlar ishlab chiqiladi. Fortune – 500 ro`yxatiga kiruvchi etakchi xalqaro kompaniyalar ZTE kompaniyasining texnologiya va echimlaridan keng foydalanadilar. Bugungi kunda ZTE kompaniyasi elektron ta`lim sohasida turli echimlarni taklif qilmoqda. Xususan, ZTE kompaniyasi mamlakatimizda Smart Classroom («Intellektual sinf») tizimini keng yo`lga qo`ydi.



«Intellectual ta'lim» tizimi «aqli universitetlar»ni tashkil etishni nazarda tutadi. Tizim bilimlarni bir tomonlama singdirishdan voz kechib, shaxsga yo'naltirilgan tadqiqotga asoslangan ta'limga o'tish imkonini beradi, bu esa talabalar va o'qituvchilarni ilhomlantiradi. Har bir talaba faoliyatini yanada batafsil tahlil qilish, ularning qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu «aqli sinf» talabalarga fanlarni yanada batafsil o'rganish imkonini beradi.

Har bir dars serverga yoziladi va ishtirokchilarga o'tilgan darslarni uyda kompyuter yoki telefonda takrorlash imkonini beradi. Bunda har bir darsni qo'lda yozib vaqt sarflanmaydi. O'qituvchi planshetlarga o'rnatilgan «e-test» tizimidan foydalanib talabalarni darrov tekshirish va bilimlarini munosib baholash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, «aqli sinf» xorijlik professorlar bilan bog'lanish va talabalarning mahorat darsini real vaqt maromida translyatsiya qilish va bilimlardan foydalanish imkoniyatini barcha universitetlarga taqdim etish imkonini beradi.

E-learning tizimi – yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida bilim berish va ta'lim jarayonini boshqarishdir. Elektron ta'lim jarayonida axborot etkazishning interaktiv elektron vositalaridan, ko'pincha Internet va kompaniyalarning korporativ tarmoqlaridan foydalaniladi, biroq boshqa usullar, masalan, kompakt-disklar ham istisno qilinmaydi. Elektron ta'lim tizimi dasturiy va apparat echimlaridan tashkil topadi. U o'quv kontenti va ta'limni monitoring qilish tizimini o'z ichiga olgan maxsus ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lishini taqozo etadi. Uzluksiz maktabdan tashqari (qo'shimcha) ta'lim tizimini takomillashtirish belgilangan.

Ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni rivojlantirish natijasida universitetlar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida iqtisodiyotning bazaviy sektorlari va korxonalarni texnologik modernizatsiyalash dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Sifat nazorati tizimi olingan ma'lumot sifatini xalqaro baholash mexanizmini joriy etadi. Buning uchun Xalq ta'limi vazirligi PISA xalqaro dasturi (ingl. Programme for International Student Assessment – o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi) ishtirokchisiga aylanadi. Buning natijasida ta'lim sifatini baholash milliy tizimi takomillashtiriladi. Bu jarayon ta'lim statistikasi xalqaro uslubiyati (YUNESKO va IHTT) talablari va printsiplarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida etuk mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha qabul qilinishi rejalashtirilgan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan



takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident qarorining loyihasida iqtisodiy ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, iqtisodchi kadrlar tayyorlashda masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom», «spin-off» texnologiyalarini amaliyotga keng miqiyosda joriy etish, o'quv jarayoniga koucher usulini (maslahat va trening usuli) kiritish va koucherlarni jalb qilish orqali talabalarga ma'lum bir kasbiy maqsadga erishishga yordam berish tizimini qo'llash, mamlakatning chekka hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish hamda xorijiy fuqarolarni o'qishga jalb etish maqsadida Universitetda masofaviy o'qitish shakllarini (onlayn, vebnet, vebinar, e-learning dasturi va hokazolar) tashkil etish belgilandi. E'tirof etish kerakki, sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishda ilm-fan yutuqlariga tayanib, turli soha olimlari tomonidan yaratilayotgan yangi ilmiy ishlanmalar, texnik loyihalarni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini qo'llab borish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, mahalliy doirada yaratilgan yangiliklarni ishlab chiqarishda qo'llash ancha arzon tushadi. Biz bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'lga o'tishimiz kerak. Yangiliklar mahalliy-mintaqaviy sharoitda ishlab chiqilsa, juda ko'p iqtisodiy imkoniyatlar qo'lga kiritiladi [4, 233 b.]:

Umuman, mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini keng joriy etish, masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar jadallik bilan amalga oshirimoqda va bu esa yurtimizda ta'lim jarayonlarining samaradorligi va sifati oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (elektron manba) –T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. G'G' Xalq so'zi. 25 yanvar, 2020 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi G'G' Xalq so'zi. 26 yanvar, 2017 yil.

